

MOSH EKININI ZARARKUNANDA VA KASALLIKLARDAN HIMOYALASH

Boltayev Botir Safarovich, q.x.f.n., professor,
Boltayev Sanjar Botirovich, mustaqil tadqiqotchi,
 Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Ekindan yuqori va sifatli hosil olish uchun uni zararkunanda va kasalliklari hamda ularga qarshi kurash usullari va vositalari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Zararkunandalarni tur tarkibi ularni zarar etkazish xususiyatlari, uni oldini olish usullarini bilish kurash choralarini samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: mosh ekini, zararkunanda, kasallik, hasharot, kana, kurash, usul, vosita, biologik, tur, kimyoviy, oldini olish, preparat, entomofag.

Аннотация. Для получения высокого и качественного урожая из этой культуры необходимо иметь знания от основных вредителей и болезней а также методы и безопасные средства и методы борьбы с ними. Знание о видовом составе вредителей и основных болезней способствует повышению эффективности борьбы с ними.

Ключевые слова: Маи, культура, вредители, болезни, меры борьбы, агротехнический, химический, биологические средства, методы, эффективные, профилактические, препараты.

Abstract. To get a high and high-quality yield from this crop, you need to have knowledge from the main pests and diseases, as well as methods and safe means of combating them. Knowledge of the species composition of pests and major diseases contributes to more effective control.

Keywords: mash, culture, pests, diseases, control measures, agrotechnical, chemical, biological means, methods, effective, preventive, preparations.

Kirish. Ma'lumki mosh (*Phaseolus aureus* Piper. va oxirgi klassifikatsiyasi bo'yicha *Vigna radiate* (L.) Wilczek) dunyoda keng tarqalgan ekin bo'lib, u ozuqa uchun qimmatli ekin hisoblanadi [3; 8-10-b]. Mosh tuproq unumdorligini yaxshilaydi, uning ildizlarida vegetatsiya davomida azot yig'uvchi bakteriyalar to'planadi. Vegetatsiya davrida ob-havoning qulay sharoitlarida u gektariga 200 kg miqdoricha azot to'plashi mumkin. Shuning uchun mosh ildizlarini yerda qoldirib yerni haydash tavsiya etiladi. Mosh qurg'oqchilikka chidamli, resurstejamkor ekin, uni yetishtirishda katta harajat talab etilmaydi [2; 10-14-b, 3; 12; 8-b]. Almashlab ekish tizimida mosh yaxshi o'tmishdosh ekin hisoblanadi. Mosh boshqoli don va sabzavot hamda boshqa bir qator ekinlardan keyin takroriy ekin sifatida ishlatilishi maqsadga muvofiqdir. Mosh ekini deyarli barcha o'zidan keyin yetishtiriladigan ekinlarning hosilini oshiradi va barcha qishloq xo'jalik ekinlari bilan yaxshi uyg'unlashadi.



1-rasm Moshning Zilola navi

Mosh ekiniga ham boshqa ekinlar singari bir qancha zararkunanda va kasalliklar zarar yetkazadi. Mosh ekiniga kasalliklardan ayniqsa ildiz fuzarioz quruq chirishi, unshudring, mosh mozaikasi kasalliklari hamda kuzgi tunlam, ko'sak qurti (g'o'za tunlami), shiralar (akatsiya shirasi, no'xat shirasi va b.), o'rgimchakkana, issiqxona oqqanoti, loviya donxo'ri, no'xat donxo'ri zarar etkazadi. Ularni o'rganish va kurash choralarini olib borish dolzarb hisoblanadi. Agar kurash tadbirlari o'tkazilmasa yetishtirilgan hosilni 40,4-62,5% gacha yo'qotilishi mumkin. Ayrim zararkunandalar (loviya donxo'ri, no'xat donxo'ri va b.) hattoki hosilni saqlash davrida ham 71,5-80,5% gacha zarar yetkazishi mumkin. Buni oldini olishda ularni tur tarkibi, tarqalishi va zararini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Mosh ekinida uchraydigan zararkunanda, kasallik va entomofaglarni hisobga olish va tur tarkibini aniqlash, namunalar yig'ishda G.M.Yaroslavsev, B.P.Adashkevich, V.I.Tanskiy va boshq., G.Ya. Bey-Biyenko, Sh.T.Xo'jayevva boshqalarni uslublardan foydalanildi.

Tadqiqotlar Toshkent va Sirdaryo viloyatlari fermer xo'jaliklari dalalarida olib borildi.

Tadqiqot tahlili va natijalari. O'tkazilgan tadqiqotlarda mosh ekiniga zarar etkazuvchi asosiy zararkunandalarni tugunak uzunburuni, loviya donxo'ri, no'xat donxo'ri, no'xat mevaxo'ri, dukkak yoki akatsiya parvonasi, g'o'za tunlami, gamma tunlami, akatsiya yoki beda shirasi, dala qandalasi, issiqxona oqqanoti, beda qandalasi, oddiy o'rgimchakkana, ombor zararkunandalari, loviya donxo'ri va to'rt dog'li donxo'r ekanligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalari va adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib mosh ekini zararkunandalari va kasalliklariga qarshi quyidagi kurash choralarini qo'llash tavsiya etiladi. Profilaktika tadbirlari sifatida yangi hosilni qabul qilishdan oldin ombor, jihoz, qoplar va idishlarni ta'mirlash, ombor inventarlarini yuqimsizlantirmay turib boshqa omborlarga olib chiqilmaslik, ombor atroflari hasharot ko'payishi uchun qulay bo'lgan begona



2-rasm. Ko'sak qurti kapalagi



3-rasm. Ko'sak qurti



4-rasm. O'rgimchakkana



5-rasm. G'oz shirasi

Jadval.

Bir yillik don-dukkakli ekinlar zararkunandalari.

Zararkunandalar	Lotin nomi	Zarari	
		dalada	omborda
Tuganak uzunburuni	<i>Sitona lineolatus L.</i>	+	-
Loviya donxo'ri	<i>Asanthoscelides obtestus Say.</i>	+	+
To'rt dog'li donxo'r	<i>Callosobruchus maculatus F.</i>	+	+
No'xat mevaxo'ri	<i>Laspeyresia nigricana Steph.</i>	+	-
Dukkak yoki akatsiya parvonasi	<i>Etiella zinckenella Tr.</i>	+	-
G'o'za tunlami	<i>Helicoverpa armigera Hb.</i>	+	-
Kuzgi tunlam	<i>Agrotis segetum Den. Et Schiff.</i>	+	-
Gamma tunlami	<i>Autographa gamma</i>	+	-
Akatsiya yoki beda shirasi	<i>Aphis craccivora Koch.</i>	+	-
No'xat shirasi	<i>Acyrosiphon pisum Harris.</i>	+	-
Tamaki tripsi	<i>Thrips tabaci Lind</i>		
O'rgimchakkana	<i>Tetranychus urticae Koch.</i>	+	-
Dala qandalasi	<i>Lugus pratensis</i>	+	-
Issiqxona oqqanoti	<i>Trialeurodes vaporariorum</i>	+	-
Beda qandalasi	<i>Adelphocoris lineolatus Goeze</i>	+	-

o'tlardan tozalash, kunduzgi soatlarda eshik, deraza hamda havo o'tish darchalari ochilib, muntazam ravishda shamollatib turiladi, bulutli va yomg'ir kunlari omborlar shamollatish, oldini olish tadbirlari sifatida ahamiyatlidir. Urug'lik, oziq-ovqatga ishlatiladigan mosh donini nam o'tmaydigan qoplariga solinib taxta yog'och ustida taxlanib saqlash lozim. Yerga, g'ishtga yoki sement polga to'kib saqlash yaramaydi [3; 10-14-b].

Zararkunandani qirib yuqotish choralarini sifatida yozda imorat, hovuz va daraxtlardan chekkadagi balandroq tekislikka brezent va shu kabi narsalarni yozib ustiga zararsizlantiriladigan donlar yupqa qilib yozilib 3-4 kun quyoshda qizdirish, har kuni yog'och kurak bilan 2-3 marta ag'darilib turiladi hamda kechki paytda donlar tuplanib usti brezent bilan yopiladi. So'ng zararkunandalardan tozalash ham samarali tadbir hisoblanadi.

Omborda saqlanayotgan donni (ekilmaydigani) 60°C haroratda 2-3 soat saqlash zararkunandaga halokatli ta'sir etadi. Omborda haroratni 0°C gradusdan pastda saqlansa donxo'r qo'ng'izlari rivojlanishdan tuxtaydi.

Ombordagi donlar (ayniqsa eksport kilinadigani) fumigatsiya qilinishi shart. Bunda fumigatsiyalash yopiq binolarda xavfsizlik talablariga qat'iy rioya kilib o'tkaziladi. Magtoksin 660 fumiganti tabletkalari 5 gramm 1m³ maydonga sarflanib oziq-ovqat va urug'lik uchun ishlatiladigan don 5-10 kecha-kunduz davomida dudlanadi yoki Fastfos 56 fumiganti 3 gramm 1m³ miqdorda sarflab bo'sh omborda yoki 8 gramm 1m³ miqdorida sarflab 2,5 m gacha xirmon qilib to'kilgan yoki qoplanib usti brezent yoki polietilen plyonka yopilgan oziq-ovqat va urug'lik uchun ishlatiladigan don 10 kecha-kunduz davomida dudlanadi. Yoki

Metil bromid (Metabrom 980) 30-100 g/1 m³ sarflab qo'llash ham mumkin. Fumigatsiya qilib bo'lingach odamlar 4-6 kun yaxshilab shamollatilgandan keyin kirishi mumkin.

Ochiq dalada zararkunandalarga qarshi kurash choralarini qo'llash, ya'ni agroteknik tadbirlardan, ayniqsa chidamli navlarni tanlab ekish, o'simlik qoldiqlarini yo'qotish, yerni ikki yarusli plug bilan haydash va almashlab ekish zararkunandalarni zararini oldini oladi.

Mosh ekini urug'ini kasalliklarga qarshi ekishga 3-5 oy qolganda namlash usuli bilan Vitavaks 200ff 34% suvli suspenziya konsentrati (s.sus.k.) preparati bilan 5,0 kg/t yoki Fundazol 50% namlanuvchi kukun -2,0 kg/t sarflab dorilanadi.

Dala sharoitida zararkunandalarga qarshi kimyoviy usulda kurashilganda BI-58 yangi 40% emulsiya konsentrati (em.k.) 1,5-2,0 l/ga, Karate 5% em.k.- 0,5-1,2 l/ga yoki Fufanon 57% em.k. preparatlarini kanalar, shiralar, tripslar, oqqanotlar, parvonalar, mevaxo'rlarga; Omayt 57%, em.k. preparatini o'rgimchakkannaga; Superkil 25% em.k. preparatini parvonalar va mevaxo'rlarga qarshi qo'llash tavsiya etiladi.

Ekinni o'suv davrida oltingugurtli dorilar: ohakni oltingugurtli qaynatmasi (ISO) ni 0,5-1°C gradusli quyuvlikda qo'llash yoki oltingugurt talqonini gektariga 20-30 kg/ga me'yorda changlash unshudring kasalligi va o'rgimchakkannani rivojlanishini oldini oladi.

Zararkunanda va kasalliklarga qarshi boshqa ruxsat etilgan preparatlarni ham qo'llash mumkin. Pestitsidlar bilan ishlashda texnik xavfsizligi qoidalariga va sanitar talablarga qattiq rioya qilish lozim.

Биологик usul sifatida mosh ekini zararkunandalariga qarshi entomofaglardan oltinko'z, trixogramma, brakon, xon qizilar, enkarsiya va boshqalarni qo'llash, entomofaglarni ertalabki va kechki salqinda qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oltinko'z entomofagi 1:10, 1:5 nisbatlarda (2-3 ming dona gektariga); g'o'za tunlamini o'rta va katta yoshdagi qurtlariga qarshi brakon paraziti 1000-2000 dona gektariga me'yorda va

tuxumiga qarshi trixogramma entomofagi 3 ming dona gektariga, 3-6 kun oralab 3 marta chiqariladi. Zararkunanda miqdorini va entomofag chikarish muddatlarini aniqlashda feromon tutqichlardan foydalaniladi.

Xulosa. Mosh ekinini zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishda barcha tadbirlar o'z vaqtida va sifatli qilib o'tkazilsa yuqori va sifatli hosil olishga erishiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Boltayev B.S., Irgasheva N.R. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash davrida zararli organizmlardan himoyalash. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2023 yil, 28-21-b.

2. Интегрированная защита растений от основных вредителей и болезней в Восточной Европе и на Кавказе. Продолжительная и сельскохозяйственная организация ООН, Будапешт, 2017.

3. Mavlyanova R.F., Boltayev B.S. va boshq. Mosh yetishtirish texnologiyasi (tavsiyanoma) Toshkent, 2018. World Vegetable Center.

4. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida o'simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o'tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defoliantlar hamda o'simliklarni o'sishini boshqaruvchi vositalar ro'yxati. O'zbekiston Respublikasi kimyolashtirish va o'simliklarni himoya qilish vositalari davlat komissiyasi. Toshkent, 2016.

U'Y: 630 (043)+ 630*232.329.9 + 630*232.42

ҒАРБИЙ ТЯНЬ-ШАНЬ ТОҒ ТИЗМАСИДА “КМЦ”, “ПОЛИМЕЛИОРАНТ” ГИДРОЕГЕЛЛАРИ ҲАМДА “УРАГАН-ФОРТЕ” ГЕРБИЦИДИНИНГ БЕГОНА ЎТЛАР ҚОПЛАНИШИГА ТАЪСИРИ

Мамутов Бахрам Хожаниязович, қ.х.ф.ф.д., к.и.х.,
Ўрмон ҳўжалиги илмий-тадқиқот институти.

Аннотация. Ушбу мақолада Ғарбий Тянь-Шань тоғ тизмасининг ғарбий қиялигида илдиз тизими ёпиқ ҳолда экиланган дарахт кўчатлари атрофидаги бегона ўтларга қарши курашишида “КМЦ”, “Полимелиорант” гидрогеллари ҳамда “Ураган-форте” гербицидларининг таъсирлари келтирилган. Тажрибадан маълум бўлдики, нам сақловчи “КМЦ”, “Полимелиорант” гидрогеллар тупроқ юза қатламида юпқа плёнка ҳосил қилиб, бегона ўтлар уруғларининг унвчанлигини камайтиради ва уларнинг қопланиш даражасини пасайтиради. Бу вақтда “Ураган-форте” гербициди эса тажрибанинг биринчи йилидаёқ бегона ўтларни тўлиқ (100%) нобуд қилиб, уч йил давомида уларнинг тикланишига йўл қўймайди.

Калит сўзлар: “КМЦ”, “Полимелиорант” гидрогеллари, “Ураган-форте” гербициди, илдиз тизими ёпиқ ўрмон кўчатлари, ғарбий қиялик, бегона ўтлар, бегона ўтлар билан қопланиши.

Аннотация. В данной статье приведены данные о влиянии гидрогелей «КМЦ» и «Полимелиорант», а также гербицида «Ураган-форте» в борьбе с сорными растениями вокруг саженцев древесных растений с закрытой корневой системой высаженных на западном склоне западного Тянь-Шаня. Из опытов выявлено, что примененные гидрогели «КМЦ» и «Полимелиорант» образуют тонкую плёнку на поверхностном слое почвы снижают всхожесть семян сорных растений и уменьшают охват ими территории. В то же время гербицид «Ураган-форте» в первый год опыта полностью (100%) уничтожил сорные растения и не позволял им восстановиться в течение трех лет.

Ключевые слова: Гидрогели “КМЦ”, “Полимелиорант”, гербицид “Ураган-форте”, лесопосадочный материал с закрытой корневой системой, западный склон, сорные растения, зарастание сорняками.

Annotation. This article presents the effect of hydrogels “CMC” and “Polymeliolant”, as well as the herbicide “Uragan-Forte” in the fight against weeds around tree seedlings grown with a closed root system on the western slope of the western Tien Shan. From experiments, it was revealed that the applied hydrogels “CMC” and “Polymeliolant” form a thin film on the surface layer of soil and reduce the germination of seeds and the degree of coverage of territories by weeds. At the same time, the herbicide “Hurricane-Forte”, having completely destroyed weeds in the first year (100%), does not allow them to recover again within three years.

Key words: Hydrogels “KMC”, “Polymeliolant”, herbicide “Uragan-Forte”, forest planting material with a closed root system, western slope, weeds, weed overgrowth.

Кириш. Маълумки, ўрмон майдонида тупроқ намлиги тупроқ ҳосил бўлиши, унинг унумдорлигининг ошиши ҳамда дарахт ўсимликларини зарур озуқа элементлари

билан таъминлашда энг асосий муҳим ролни уйнайди. Тупроқ қатламларидаги намлик тупроқ аэрация жараёни мутадиллаштириш, ундаги зарarli моддаларнинг доимий